



MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION-INVESTITSION SALOHIYATINI TADQIQ QILISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Qudratov Zafar G'aybullayevich

Sirdaryo biznes va texnologiyalar universiteti

ORCID: 0009-0002-0139-9255

akash7509@rambler.ru

Annotatsiya. Jahonda keyingi yillarda innovatsion salohiyatni, xususan, ilmiy-texnik, investitsion, intellektual, infratuzilmaviy va malakali ishchi kuchi salohiyatini oshirish, ulardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor berilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada milliy iqtisodiyotning innovatsion-investitsion salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlarini ochib berilgan va bu borada mualliflik yonlashuvlari ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, investitsion jozibadorlik, innovatsiya, innovatsion klaster, innovatsion salohiyat.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ

Кудратов Зафар Гайбуллаевич

Сырдарьинский Университет бизнеса и технологий

Аннотация. В последующие годы в мире уделяется особое внимание научным исследованиям, направленным на повышение инновационного потенциала, в частности, научно-технического, инвестиционного, интеллектуального, инфраструктурного и квалифицированного потенциала рабочей силы, их эффективное использование. Исходя из этого, в данной статье раскрыты возможности эффективного использования инновационно-инвестиционного потенциала национальной экономики и выдвинуты авторские подходы в этом направлении.

Ключевые слова: национальная экономика, экономический рост, инвестиционная привлекательность, инновации, инновационный кластер, инновационный потенциал.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE STUDY OF THE INNOVATION AND INVESTMENT POTENTIAL OF THE NATIONAL ECONOMY

Kudratov Zafar Gaibullaevich

Syrdarya University of Business and Technology

Abstract. In the following years, the world pays special attention to scientific research aimed at increasing the innovative potential, in particular, scientific and technical, investment, intellectual, infrastructural and qualified potential of the workforce, and their effective use. Based on this, this article reveals the possibilities of effective use of the innovation and investment potential of the national economy and puts forward the author's approaches in this direction.

Keywords: national economy, economic growth, investment attractiveness, innovation, innovation cluster, innovation potential.

Kirish.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi bir qator o'zaro bog'liq jihatlar bilan tavsiflanadi.

Birinchidan, innovatsion salohiyatning iqtisodiy mazmuni va innovatsion salohiyat to'g'risidagi turli xil kontseptsiyalar evolyutsiyasini o'rganadi.

Ikkinchidan, milliy iqtisodiyot innovatsion salohiyatining shakllanishi va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillari, mamlakatimiz investitsion jozibadorligini oshirishda investitsion faoliyatini tartibga solishning me'yoriy-huquqiy asoslarini yoritish jarayonini bashorat qilishga imkon beradi.

Uchinchidan, mamlakatimiz innovatsion salohiyatidan foydalanishning holati tahlili va undan foydalanish darajasini baholash uslubiyatini tahlil qiladi hamda milliy iqtisodiyotda investitsiyalarning iqtisodiy o'sish sifatiga ta'siri samaradorligining qiyosiy tahlilini amalga oshirish yangicha yondashuvlardan foydalanishni ko'zda tutadi.

To'rtinchidan, investitsiyalardan samarali foydalanishning xorij tajribasi va undan milliy iqtisodiyotda foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etish.

Beshinchidan, davlat iqtisodiy siyosatining aniq belgilangan maqsadlari doirasida amalga oshirilayotgan investitsion salohiyatning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashni taqozo qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Turli xil mamlakatlar innovatsion salohiyatidan foydalanish darajasini oshirishning nazariy-uslubiy jihatlari ko'plab xorij olimlari tomonidan muayyan darajada o'rganilgan (Schumpeter, 1912).

Innovatsion salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy jihatlarini o'rganish bilan bog'liq tadqiqot ishlari MDH mamlakatlaridagi qator olimlarning izlanishlarida ham ma'lum darajada tadqiq etilgan (Petrovskaya, 2009).

Vaxabovning (2011) fikriga ko'ra, ishlab chiqarish resurslarining moddiy-ashyoviy o'lchamlari yordamida iqtisodiy salohiyatning miqdoriy ko'rsatkichlari haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Shuningdek, Nurimbetov va Madraximovlar (2017) tadqiqotlarida iqtisodiy salohiyat tushunchasiga "...iqtisodiy tizimning mahsulot ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalarini yecha olish qobiliyatlari majmuasidir" o'z tadqiqotlarida to'xtalib o'tadi.

Bir qator xorijlik tadqiqotchilar iqtisodiy adabiyotlarda innovatsion salohiyat tushunchasi asosan ilmiy, intellektual, ilmiy-texnik salohiyat bilan tenglashtiriladi (Santo, 2006).

Umuman olganda tadqiqotchilar tomonidan инвестицион salohiyat darajasini o'rganish borasida keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilganligiga qaramasdan, iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida mazkur tushunchani ilmiy bilishning zamonaviy usullaridan foydalangan holda tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolaning asosiy kontseptsiyasini investitsion jozibadorlikni ta'minlashning iqtisodiy mazmun-mohiyatini ochib berish tashkil qiladi. Tadqiqot kontseptsiyasidan kelib chiqqan holda, инвестицион салоҳиятнинг talqini borasida turli mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning qarashlari o'zaro solishtirildi, ularning farqlovchi va o'xshash jihatlari alohida guruhlariga ajratilgan holda, investitsion salohiyatning mintaqaviy hususiyatlari borasida mualliflik yondashuvi ishlab chiqildi. Maqolada ilgari surilgan mualliflik yondashuvlari va qarashlarini asoslash maqsadida ilmiy bilishning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tarixiylik, umumlashtirish, o'zaro taqqoslash kabi usullaridan keng foydalanishga harakat qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hozirgi kunda ilmiy-texnikaviy sohaning, ya'ni, fan, ta'lim, texnika taraqqiyoti, texnologiya bozorining rivojlanishi iqtisodiy o'sishning barqaror davom etishi uchun asos yaratib, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda muhim omillardan biri sanaladi. Innovatsion salohiyat jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida imkoniyatlarni kengaytiradi, kapital va tabiiy resurslarni

tejaydi. Boshqa sharoitlar o'zgarmagan holatda fan texnika taraqqiyoti hamda ishchi kuchi innovatsion faolligi qanchalik yuqori bo'lsa, jamiyatda ham shuncha katta innovatsion salohiyat vujudga keladi.


"Innovatsion salohiyat" tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida qaraladi. Iqtisodiy salohiyatning ajralmas qismi sifatida innovatsion salohiyat ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasidagi murakkab mexanizm bilan belgilanadi. Bundan kelib chiqqan holda innovatsion salohiyat: bir tomondan, innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan turli xil resurslar to'plami; ikkinchidan, turli xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning iqtisodiy munosabatlar tizimini takomillashtirish jarayonida innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun umumiy innovatsion salohiyatni shakllantirishga qaratilgan majmua hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda innovatsion salohiyat tushunchasi asosan ilmiy, intellektual, ilmiy-texnik salohiyat bilan tenglashtiriladi. Ilmiy izlanishlar aksariyat tadqiqotlarda mualliflar innovatsion salohiyatning ayrim tomonlarini tadqiq qilishgan va masalaga bir tomonlama yondashishganligini ko'rsatdi.

Shundan kelib chiqqan holda, *innovatsion salohiyat* deganda, birinchidan, innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi turli xil resurslar majmui, ikkinchidan, takror ishlab chiqarish jarayonida innovatsion salohiyatni shakllantirishga qaratilgan xo'jalik sub'yektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tushuniladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, har bir ta'rif to'g'ridan-to'g'ri innovatsion salohiyat va resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashtirish imkonini beradi.

Iqtisodiy salohiyat yagona iqtisodiy tizimini tashkil etuvchi ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining o'zaro aloqalarini namoyon etadi. Ishlab chiqarish munosabatlari ishlab chiqarish kuchlarining ijtimoiy ko'rinishidir. Ular birgalikda har bir ishlab chiqarish usulining ikki tomonini tashkil qiladi va ishlab chiqarish kuchlari hamda munosabatlarining rivojlanish qonuniyatlari tavsifiga ko'ra o'zaro bog'liqdir (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiy salohiyat ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining o'zaro harakati sifatida (Samadqulov, 2023)

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda, *iqtisodiy salohiyat* deganda - bir tomondan, jamiyat ehtiyojlarini qondirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda xizmatlarni ishlab chiqarishga zarur bo'lgan yalpi iqtisodiy resurslar, boshqa tomondan esa, ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish sohalarida

iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun qobiliyatlar yig'indisini shakllantirish bo'yicha xo'jalik faoliyatining turli sub'yektlari o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi tushuniladi.

Innovatsion rivojlanishga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni ichki va tashqi ajratiladi. U ichki omillarga innovatsion faoliyat sub'yekti bevosita o'zi ta'sir qila oladigan omillarni kiritadi. Innovatsion rivojlanishga ta'sir qiluvchi tashqi omillarning soni sezilarli darajada ko'proq (1-jadval).

Innovatsion salohiyatga ta'sir qiluvchi omillar tizimi eng avvalo, tanlangan tasnifiy belgilarga bog'liqdir.

Shuning uchun ham innovatsion rivojlanishga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni tasniflanishi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Fikrimizcha, innovatsion salohiyat va uning oshishiga ta'sir qiluvchi omillarni ajratish bo'yicha yuqorida tahlil qilingan turli xil yondashuvlardan kelib chiqib, ularni innovatsion salohiyat rivojlanishiga ta'sir qilish tavsifiga, nazorat qilish darajasiga va paydo bo'lish manbasiga ko'ra mezonlarga ajratgan holda tasniflash maqsadga muvofiq.

B.Kamiljanov milliy iqtisodiyotda innovatsion salohiyatning ko'lami, o'zgarish sur'atlari va uning ichki tarkibini belgilab beruvchi bir qator omillarni ajratib ko'rsatadi:

- ichki va tashqi bozorda mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida uni yangilash hamda texnik-eksplutatsion darajasini oshirish;

- xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik sur'atlarini jadallashtirish va shu orqali jahon bozoriga chiqish;

- ilmiy tadqiqotlar va texnik ishlanmalar natijalarini tez o'zlashtirish va ommaviy tarqatish;

- tarkibiga ilmiy va muxandis-texnik xodimlar kiruvchi kadrlar salohiyatini saqlab qolish hamda innovatsion faoliyat bilan kam bog'langan sohalariga yuqori malakali kadrlarning o'tishiga yo'l qo'ymaslik (Kamiljanov, 2007).

1-jadval

Innovatsion rivojlanish omillari (Suyazov, 2011)

| Ichki omillar | Tashqi omillar |
|---|--|
| 1. Ilmiy-texnik salohiyat. | 1. Innovatsion infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi. |
| 2. Subyektlarning innovatsion qobiliyati. | 2. Iqtisodiyot turli sohalarining rivojlanish tendentsiyasi. |
| 3. Kadrlar salohiyati. | 3. Ma'lum bozorlarda raqobat tavsifi. |
| 4. Axborot resurslari. | 4. Innovatsiyalarga bo'lgan to'lovga qobiliyatli talab. |
| 5. Marketing salohiyati. | 5. Mamlakat va mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy holat. |
| 6. Boshqaruv salohiyati. | 6. Ta'lim sifati. |
| 7. Moliyaviy resurslar. | 7. FTT tendentsiyasi. |
| | 8. Iqtisodiy rivojlanish tendentsiyalari. |
| | 9. Davlatning innovatsion siyosati. |
| | 10. Xalqaro raqobat va mehnat taqsimotining ta'siri. |

Aksariyat olimlar innovatsion salohiyatga ta'sir qiluvchi omillar sifatida uning tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatadilar. Masalan, I.Tatarintseva innovatsion salohiyat elementlarini ifodalovchi moliyaviy, ilmiy-texnik, tashkiliy, ishlab chiqarish-texnik vositalarni omillar sifatida ko'rib chiqadi (Tatarintseva, 2007)

Hozirgi vaqtda ishchi kuchi resurslari innovatsion salohiyat rivojlanish omillari ichida nisbatan tez ta'sir qiluvchi omil bo'lib bormoqda, chunki, yuqori malakali kadrlar, ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalarni import qilish yoki axborot texnologiyalarini ko'llagan holda masofadan turib ulardan foydalanish imkoniyati mavjud. Texnologik-ishlab chiqarish omili mavjud ishlab chiqarish bazasi hamda yangi korxonalarini, shu jumladan, venchur korxonalarini yaratish hisobiga shakllanadi. Milliy iqtisodiyot innovatsion salohiyatini oshirishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar qatoriga innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan, ya'ni, ilm-fan,

ta'lim, ishlab chiqarish, soliq, ijtimoiy soha, moliya-kredit, tarkibiy o'zgarishlarning ustuvor yo'nalishlarni belgilab beruvchi davlatning innovatsion siyosati kiritiladi.

Xorijiy tadqiqotchilarning инновацион салоҳиятни белгилайдиган ko'rsatkichlar tizimini tahlil qilish ular ko'pincha ko'rsatkichlarning miqdoriy jihatlariga emas, aksincha sifat bilan bog'liq qirralariga katta e'tibor qaratishlarini ko'rsatadi, bunda erkinlik, baxtlilik, ekologik omillar, sog'liqni saqlash va innovatsiya kabi sifat ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan o'rganishlar innovatsion salohiyat kabi murakkab va ko'p o'lchovli kategoriyani tavsiflashda muayyan bir ko'rsatkichlar majmui bilan cheklanib bo'lmasligini ko'rsatadi. Investitsion muhitni shakllantirish borasida amalga oshiriluvchi tadqiqotlarning tavsifi va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, iqtisodiy rivojlanishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar farqlanadi.

O'rganish natijalari innovatsion salohiyatni ilmiy jihatdan tadqiq qilgan mutaxassis va olimlar mutaxassislarning bilim saviyasi innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlanganlik holati kabilar ta'sir qilishi borasida yaxlit qarashlarni ilgari suradilar.

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini oshirishda institutsional omillarning ahamiyati juda katta ekanligi o'z isbotini topdi. Shuning uchun ham institutsional-huquqiy shart-sharoitlarni takomillashtirmasdan turib, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilishning iloji yo'qligi ko'pchilikka ma'lum haqiqatdir. Mavjud institutlarni rivojlantirish bilan birga zamonaviy talablarga javob beradigan yangi institutlarni yaratish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyot innovatsion salohiyatining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi barcha omillarni tez va sekin ta'sir qiluvchi omillarga ajratish mumkin. Chunki iqtisodiyotning globalizatsiya sharoitida ko'pgina omillarni boshqa hududlardan ko'chirib olib kelish mumkin. Masalan, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish-texnologik va axborot resurslarini boshqa davlatdan yoki hududdan import qilish imkoniyati mavjud. Moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida innovatsion salohiyat omillarining tezligini oshirishga imkon yaratuvchi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mumkin.

Tahlillarimiz natijasida aytish mumkinki, investitsiyalar, innovatsiyalar, xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini va turizmni rivojlantirish masalalari bo'yicha imkoniyatlari va ko'lamiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Jalb etilayotgan xorijiy va ichki investitsiyalar faoliyat yuritayotgan ustuvor tarmoqlardagi korxonalarni texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish va raqobatdoshligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan choralar mamlakat iqtisodiyotining yanada rivojlanishini ta'minlashi va quyidagi vazifalar ijrosiga xizmat qilishi zarur:

1. Hududlarning ishga solinmagan imkoniyat va zaxiralarini izlab topish va ishga solish;
2. Hududlarda aholi bandligini ta'minlash maqsadida yangi va doimiy tavsifga ega bo'lgan ish o'rinlari yaratish;
3. Hududlarga xom ashyo va materiallarni sanoat usulida qayta ishlash imkonini beruvchi sanoat texnologiyalari va yangi boshqaruv usullarini olib kirish;
4. Xorijiy valyuta tushumlarini oshirish maqsadida eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni tashkil etish;
5. Hududlardagi ijtimoiy muammolarni hal etish;
6. Hududlarning noyob ustunliklarini ro'yobga chiqarish;
7. Hududlarning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini mustahkamlash;
8. Aholi daromadlarini oshirish va hududiy ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash va b.

Adabiyotlar / Literature / Reference:

- Kamiljanov B.I. (2007) *Innovatsiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish. Monografiya.* - T.: Fan. - 162 b.
- Matkuliyeva S., Begimqulov J. (2024) *MARKETING ASOSIDA TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY JIHATLARI //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil.* – T. 2. – №. 2. – С. 155-164.
- Nurimbetov R.I. (2017) *Innovatsion salohiyat – zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirish poydevori. BIZNES-EKSPERT.* №5. 46-56 b.
- Samadqulov M.I. (2023) *Milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya.* Toshkent.
- Schumpeter J. (1912) *Theorie der wirtschaftlichen Entwicklung – Berlin: Duncker & Humblot.*
- Абдувохидов А.А., Тошбоев Б.Б. (2021) *Худудда импорт ўрнини босиш сиёсатини амалга ошириш механизми //Журнал Инновации в Экономике.* – Т. 4. – №. 10.
- Вахабов А.В. (2011) *Барқарор иқтисодий ўсиш омиллари. // Бозор, пул ва кредит.* - Т.: 6/2011. 38-42 б.
- Матқулиева С., Ваусов Д. (2023) *MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNESNING AHAMIYATI VA ROLI (Xorazm viloyati misolida) //НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ "МА'MUN SCIENCE".* – Т. 1. – №. 2.
- Петровская Ж.А. (2009) *Влияние инновационного потенциала на экономический рост. // Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук.* -Саратов. – 161 с.
- Суязов В.Н. (2011) *Комплексная оценка эффективности инновационного развития научно-производственных организаций. // автореф. дисс. канд. экон. наук 08.00.05 - Саратов, - с.24.*
- Татаринцева И.В. (2007) *Управление инновационным потенциалом региона на основе эффективных методов его оценки и анализа. // автореф. дисс. канд. экон. наук 08.00.05 Орлове, гос. техн. ун-т. - Орел, - с.22.*